

GASTRONOMIK TURIZM XUSUSIYATI VA UNING MICE TURIZMDAGI O`RNI.

Izamova Shaxribonu Gapparovna,

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot va Turizm fakulteti

I-bosqich magistranti

[*shaxribonukhudayberdiyeva@gmail.com*](mailto:shaxribonukhudayberdiyeva@gmail.com)

O'roqova Dilfuza Bahriddinovna,

BDU, Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrasida

I.f.f.d dotsenti

Annotatsiya

Quyidagi maqoladan ko`zlangan asosiy maqsad gastronomik turizmni kelib chiqishi, tarixi, uning dolzarbligini, mohiyatini keng yoritib berishdan iborat, chunki dunyoning ko`plab rivojlangan mamlakatlarida gastronomik turizm - turizmning asosiy turi sifatida e`tirof etilyapti.

Hozirgi kunda turizm butunjahon miqyosida jadal rivojlanib borayotgan, davlat iqtisodiyotining ajralmas bir sohasi hisoblanadi. Shu sababli, turistik faoliyat bilan bog`liq jarayonlarga ham boshqa sohalar kabi ko`p e`tibor qaratilyapti. Undan tashqari, tashkillashtirilgan gastronomik turlarning hamda ularning MICE turizmdagi o`rni, gastronomiyaning ahamiyati yoritilgan.

Gastronomik turizmning tarixiy ildizlari va bugungi kunda bu yo`nalishda xorijiy davlatlar hamda O`zbekistonda olib borilayotgan ilmiy-amaliy jarayonlar solishtirma misollar bilan ko`rib chiqilgach, gastronomik turizmni rivojlantirish hozirda qanchalik zarur ekanligi va buning uchun gastronomik turizmni ommalashtirish va bu borada yuksak tashabbuslarni ilgari surish, yurtimizda bu sohadagi bilim darajalarni oshirish, mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarini bu sohaga jalb qilish, xalqaro hamkorliklarni yanada kengaytirish kerak degan xulosaga kelindi.

Kalit so`zlar: gastronomik turizm, MICE turizm, turistik mahalla, hududlarning ijtimoiy rivojlanishi, iqtisodiyot.

Аннотация

Основная цель следующей статьи – объяснить происхождение, историю, актуальность и сущность гастрономического туризма, поскольку во многих развитых странах мира гастрономический туризм признан основным видом туризма.

В настоящее время туризм является неотъемлемой отраслью экономики государства, стремительно развивающейся в мировом масштабе. По этой

причине большое внимание уделяется процессам, связанным с туристической деятельностью, а также другим сферам. Кроме того, освещены организованные гастрономические туры и их место в MICE-туризме, значение гастрономии.

Рассмотрев исторические корни гастрономического туризма и научно-практические процессы, осуществляемые в этом направлении сегодня в зарубежных странах и Узбекистане на сравнительных примерах, развитие гастрономического туризма, сделан вывод о необходимости популяризации гастрономического туризма и продвижения инициатив высокого уровня в этом направлении, повышения уровня знаний в этой области в нашей стране, вовлечения в эту сферу местных органов власти, общественных организаций, средств массовой информации, дальнейшего расширения международного сотрудничества. сотрудничество.

Ключевые слова: гастрономический туризм, MICE туризм, социальное развитие регионов, экономика.

Abstract

The main purpose of the following article is to explain the origin, history, relevance and essence of gastronomic tourism, because in many developed countries of the world, gastronomic tourism is recognized as the main type of tourism. Currently, tourism is an integral sector of the state economy, which is rapidly developing on a global scale. For this reason, much attention is being paid to the processes related to tourist activity, as well as to other areas. In addition, the organized gastronomic tours and their place in MICE tourism, the importance of gastronomy are highlighted.

After examining the historical roots of gastronomic tourism and the scientific and practical processes carried out in this direction today in foreign countries and Uzbekistan with comparative examples, the development of gastronomic tourism. It was concluded that it is necessary to popularize gastronomic tourism and promote high-level initiatives in this regard, increase the level of knowledge in this field in our country, involve local authorities, public organizations, mass media in this field, and further expand international cooperation.

Key words: gastronomic tourism, MICE tourism, social development of regions, economy.

Kirish. Turizm hozirgi kunda xizmat ko'rsatish sohasining eng istiqbolli va jadal sur'atlarda rivojlanib kelayotgan kuchli jahon sanoati hisoblanib, faol taraqqiy etayotgan soha ekanligi uchun yuzillikning iqtisodiy fenomeni deb atalgan. Ko'plab mamlatlarda qo'shimcha ishchi o'rinlar yaratishda, bandlikni ta'minlashda hamda YaIM shakllanishida sezilarli ahamiyatga ega. Turizm iqtisodiyotning turli tarmoqlariga (transport, qishloq xo'jaligi, shaharsozlik) o'z ta'sirini o'tkazadi. Turizm sohasi XX asrning oxiridan boshlab dunyoning ko'plab

rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida aholi daromadning asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Turizm ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos katalizatori bo'lib xizmat qiladi.

Turizm tarmog'ining rivojlanishini hisobga olib, turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiyasida ham «dam olish, bo'sh vaqt va muntazam berib boriladigan, haq to'lanadigan ta'til, shuningdek, bu vaqtni dam olish uchun sarflash, ta'lim olish va o'yin-kulgi bilan o'tkazish maqsadida erkin yurish, ichki va xalqaro turizmdan olinadigan ne'matlardan foydalanish»¹ huquqini beruvchi qoida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev turistik imkoniyatlar haqida quyidagilarni keltirib o'tgan edi: «Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi.»²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonining qabul qilinishi bilan, turizm tarmog'ini iqtisodiyotning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirish boshlandi. Shu o'rinda gastronomik turizmga ham katta e'tibor qaratilib, Gastronomik turizm assotsiatsiyasi, Barista assotsiatsiyasi kabi qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlarning tashkil etilishi va ular ko'magida agroturizm, gastronomik festival va mahorat darslarining tashkil etilishi sohaning rivoji uchun ulkan turtki bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Gastronom so'zining kelib chiqishi quydagicha talqin etiladi (yunonchadan "Gastros" - oshqozon, "nomos" - qonun, ta'limot,) degan ma'noni anglatib, bugungi kunda bu atama ma'nosi faqat uning etimologik kelib chiqishi bilan bog'lanadi. Shundan kelib chiqib, gastronomik turizmni fan sifatida oladigan bo'lsak, "Oziq-ovqat do'koni", – ovqatlanish va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan fan deb tarif berishimiz mumkin.³ Gastronomik turizm atamasi ham soha mutaxassislari tomonidan bir qancha tariflar bilan keltirilgan:

✓ bu milliy taomlar, mahsulotlar, ichimliklar bilan tanishish uchun turli mamlakatlarga sayohat qilish.⁴

¹ Кутлимуротов Ф.С. Внедрение Корейского гостиничного менеджмента в Узбекистане. Материалы VII-Международной научно-практической конференции студентов и аспирантов. г. Донецк 2004(Кутлимуротов Ф.С. Introduction of Korean hotel management in Uzbekistan. Materials of the VII-International Scientific and Practical Conference of Students and Postgraduates)

² Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлига Мурожаатнома. [http:// www.gov.uzo](http://www.gov.uzo)(Мирзиёев Ш.М. Обращение к Олий Мажлису)

³ Ткачук П.Ю. Новая русская кухня как фактор развития национального наследия / П.Ю. Ткачук // Вестник Луганского национального университета имени Тараса Шевченко: сб. науч. тр. / гл. ред. Е.Н. Трегубенко; вып. ред. Н.В.Вострякова; ред. сер. А.Е. Пожидаев. – Луганск: Книга, 2018. – № 1(10): Серия 5. География. Экономика. Туризм. – 148с. (Ткачук Р.Ю. New Russian cuisine as a factor in the development of national heritage / Р.Ю. Ткачук // Bulletin of the Lugansk Taras Shevchenko National University:)

⁴ Куклина Т.С. Гастрономический туризм на туристическом рынке. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.sworld.com.ua/konfer30/682.pdf>. Сборник научных трудов SWORLD. Материалы международной научно-практической конференции «Современные направления теоретических и прикладных исследований 2013» 19-30 марта 2013 г. (Kuklina T.S. Gastronomic tourism in the tourist market. [Electronic resource]. - Access mode: <http://www.sworld.com.ua/konfer30/682.pdf>. Collection of scientific papers SWORLD. Materials of the international scientific-practical conference "Modern directions of theoretical and applied research")

- ✓ bu mamlakatning milliy oshxonasi, oshpazlik xususiyatlari an'analari, ishlab chiqarish va tayyorlash xususiyatlari ovqatlar va idishlar, shuningdek, kasbiy bilimlarni o'qitish va takomillashtirish uchun sayohat qilish.⁵
- ✓ bu asosiy maqsadi mamlakat yoki mintaqaning milliy taomlari bilan tanishish, mahsulotlar xususiyatlari, texnologiya, pishirish, shuningdek, oshpazlik bilim darajasini oshirish bo'lgan faoliyatdir.⁶
- ✓ bu hududlar, dunyo bo'ylab sayohat qilish va mahalliy taomlar bilan tanishish, oshpazlik urf-odatlarini, shuningdek, o'ziga xos ta'mini ko'rish uchun tashrib buyurish.⁷

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, gastronomik turizm – bu biror bir shaxs yoki guruhning mamlakatlar va qit'alar bo'ylab milliy taomlar va ichimliklarni tatib ko'rib, undan rohatlanish yoki shifo topish uchun hamda ushbu mahsulotni ishlab chiqarish usullari, oshpazlik sirlari, pishirish texnologiyalarini o'rganish hamda har bir hududga xos bo'lgan taomlarni farqlash va ularni taqqoslash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga sayohat qilishdir.

Gastronomik turizm – sayohatchining dunyoning turli mintaqalariga borib, mahalliy pazandalik an'analari bilan tanishishi, milliy taom va ichimliklardan tatib ko'rish, mahalliy oshpazlardan ularni tayyorlash sirlarini o'rganishi turizm turidir. Bunday turizmning asosiy maqsadi mintaqa (mamlakat, shahar) haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish, yangi taomlarni tayyorlashni o'rganish va ta'm hissiyotlarining butun palitrasini kashf qilishdir.⁸ Gastronomik turizmning kelib chiqish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, ma'lumki uzoq tarixga borib taqaladi. Masalan: ibtidoiy jamoa tuzumidagi odamlar yashash uchun ozuqa topish maqsadida, turli hududlar bo'ylab kezib yurib, hayvonlar va qushlarni ovlaganlar, turli xil mevali daraxtlarni hamda insonlar istemol qiladigan o'simliklarni terib, iste'mol qilib kun kechirishganligidan boshlab kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Ular o'zlari uchun qayerda serob va lazatli hamda foydali yeguliklar bo'lsa, o'sha hududlarga muntazam qatnab turishgan va makon qurishgan. Ovqatlanish yoki oshpazlik san'ati miloddan avvalgi III asrda dastlab Yunonistonda, so'ngra Rimda taraqqiyotga boshladi. Yunonlar va rimliklar ovqatlanish madaniyati bir-biriga o'xshash bo'lib, asosan taomlar turli xil go'sht yoki baliq ovqatlaridan tashqari, sabzavot va barcha turdagi o'tlarni asal va shirinliklarni o'z ichiga olgan.

⁵ Нехаева Н.Е., Терехова Ю.С. Гастрономический туризм как перспективное направление развития регионов России // Естественные и математические науки в современном мире: сб. ст. по матер. XXXIV междунар. науч.-практ. конф. № 9(33). – Новосибирск: СибАК, 2015. (Nekhaeva N.E., Terekhova Yu.S. Gastronomic tourism as a promising direction for the development of Russian regions // Natural and mathematical sciences in the modern world)

⁶ Саламатина С.Е. Состояние и перспективы развития гастрономического туризма на юге Одесской области. Одесская национальная академия пищевых технологий. Научные труды, выпуск 46, том 2. - С. 325-329. (Salamatina S.E. Status and prospects for the development of gastronomic tourism in the south of the Odessa region. Odessa National Academy of Food Technologists)

⁷ Hall СМ, Mitchell R. Gastronomic tourism //Niche Tourism. – 2013. – P. 73. (Холл С.М., Митчелл Р.Гастрономический туризм //Нишевый туризм.)

⁸ <https://www.eda27.ru/gastronomicheskiv-turizm>

Turizmning ushbu turi ming yillik tarixga ega va barchaga ancha vaqtdan beri ma'lum. Dunyodagi ko'plab sayohatchilar ham aynan gastroturistlar bo'lgan. Lyuis va Klark, Marko Polo, Afanasiy Nikitin kabi sayohatchilar boshqa taassurotlari qatorida mahalliy taomlar ularga qanchalar manzur bo'lganini ta'riflab berishgan. Masalan, 1548-yilda Ortensio Lando gastronomik turizmning dastlabki kashfiyotchilaridan biri bo'lib, o'z adabiyotida taxminiy mehmon uchun Italiyaning shimolga Sitsiliyadan Alp tog'lariga sayohat qilishni taklif qildi va qayerda to'xtab, mahalliy ovqatlanishni tavsiya qildi⁹. 1801-yilda ikki boy amerikalik AQShning uchinchi prezidenti Tomas Jeffersondan sayohat bo'yicha maslahat so'rab murojaat qilganida, ularga Fransiya sharoblari haqida eslatib, borib ko'rishga arziydigan diqqatga sazovor joylar haqida ham ma'lumot bergan¹⁰.

Asosiy qism. Gastronomik turizm atamasi rasmiy ravishda 2000-yillardan boshlab faol qo'llanila boshlandi. Mazkur kontseptsiya birinchi marta 1998 yilda Bowling Green universitetining xalq madaniyati kafedrasida dotsenti Lyusi Long (Ogayo shtati, AQSh) tomonidan odamlar boshqa madaniyatlarni mahalliy taomlar orqali o'rganishi haqidagi g'oyani ifodalash uchun ishlab chiqilgan. Bu- gastronomik turizmni turizmning alohida turi sifatida rivojlanishiga zamin yaratdi.

2001 yilda Xalqaro pazandachilik turizmi assotsiatsiyasi (XTA) prezidenti, amerikalik iqtisodchi Erik Vulf pazandachilik turizmiga oid o'z tashkilotining hujjatini taqdim etdi. Keyinchalik bu hujjat pazandachilik va vino turizmiga qiziqish ortib borayotganini qayd etgan kitobga aylandi. Olim shu bilan to'xtamadi va 2003-yilda bugungi kungacha o'zi direktori bo'lgan Xalqaro oshpazlik turizm uyushmasini tashkil etdi. Bu boradagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inglizlar "pazandalik sayyohligi" so'zining ma'nosini noto'g'ri tushunganliklarini ko'rsatgandan so'ng, uyushma 2012-yilda o'zining nomini "Butunjahon gastronomik turizm assotsiatsiyasi" nomiga o'zgartirdi va

2012-yildan "gastronomik turizm" atamasidan rasman foydalanishga o'tildi¹¹. Bugungi kunda Butunjahon gastronomik turizm assotsiatsiyasi Gastronomik turizmni rivojlantirish bo'yicha eng yirik va eng muhim tashkilot hisoblanib, uning tarkibiga 139 mamlakatda to'rt yo'nalishda faoliyat yuritadigan 50 mingga yaqin mutaxassis mavjud. Uning faoliyati gastronomik turizmni rivojlantirish va unga aloqador biznesni rivojlantirishni muvofiqlashtirish, shuningdek, ushbu sohadagi tadqiqotlar, mutaxassislarni tayyorlash, sertifikatlash, konsalting, shuningdek yirik ilmiy tadbirlar (konferentsiyalar va seminarlar)ni o'z ichiga oladi. Jumladan hozirgacha Gastronomik turizmni MICE turizm bilan bog'liq jihatlarini hamda uning ahamiyatini o'rganish

⁹<https://dokumen.pub/the-routledge-handbook-of-gastronomic-tourism-1nbped-1138551554-9781138551558.html>

¹⁰ John D Mulcahy "Historical Evolution of Gastronomic Tourism" 2019 y (Историческая эволюция гастрономического туризма)

¹¹ http://www.immaterieelerfgoed.nl/media/inline/2017/9/14/tourism_and_intangible_cultural_heritage_unwto.pdf

uchun, avvalo MICE turizm turini ko`rib chiqamiz. Aslida, bu turizm va sayohatning o'ziga xos turi bo'lib, u ham xizmat safarlarini, ham dam olishni o'z ichiga oladi.

MICE turizm termini inglizcha qisqartma bo'lib, izohlaganda:

Meetings- biznes uchrashuvlarini tashkil etish.

Incentives- uning mohiyati shundan iboratki, korporativ sayohatni tashkil etish orqali motivatsiya tizimidan foydalanish, yaxshi ishlagani va erishgan yutuqlari uchun xodimni rag`batlantirish maqsadida kompaniya tomonidan to`lanadigan ta`til, tur-insentiv tur sifatida tanilgan, rag`batlantiruvchi sayohat qilishdir. Konferentsiya-kongress va konferentsiyalarni tashkillashtirish va ularga tashrif buyurish xizmatlarini ko`rsatish. Konferentsiyalar yoki anjumanlar yig'ilish shakli hisoblanadi. Exhibitions- ko`rgazma hamda festivallarda qatnashishni tashkillashtirish. Shu bilan birga savdo yarmarkalari ham mansubdir. Ko`rgazmalarni yana bir tomoni shundan iboratki, tashrif buyuruvchilar ham potensial xaridor bo`lishi va xizmatlarga buyurtma berish, tovarlarni sotib olish va ularning texnologiyalari bilan tanishishdan iborat.

Shu o`rinda qayd etish lozim bo`lgan va MICE turning gastrotur bilan bog`liqlik joyi shundaki, gastronomik turizm boshqa turlar bilan umumiy xususiyatlarga ega bo`lganligi sababli, u MICE turizmining bir qismi bo`lishi yoki boshqa turizm turlarining ayrim xususiyatlariga ega bo`lishi mumkin.

Tadbir va festivallar gastronomik turizmi butun dunyo bo`ylab vaqti-vaqti bilan o`tkaziladigan, ulkan mashhurlikka ega bo`lgan muayyan tadbir yoki oziq-ovqat festivaliga tashrif buyurishni maqsad qiladi.

Gastronomiyaga oid mahorat darslari, ko`rgazmalar, festivallar, yarmarkalar, degustatsiyalar gastronomik turizmni MICE turdagi ahamiyatini kasb etadi.

Konferensiya va kongressni tashkil etganda, rejalashtirilayotgan tadbirning ko`lami, uning davomiyligidan kelib chiqqan holda tortiq qilinadigan tamaddilarni joyida tayyorlashni, yoki keytering xizmatidan foydalanish mumkin. Tadbirning xususiyatlardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni o`z ichiga olishi mumkin:

- ✓ issiq va yaxna ichimliklar;
- ✓ shirin tamaddiqlar, desert va tortlar;
- ✓ yaxna furshet ko`rinishida tortiq qilingan gazaklar;
- ✓ taomlar.

MICE turning keyingi yo`nalishi "Exhibitons"dagi gastronomiyaning ahamiyati shundan iboratki, yarmarka, ko`rgazmalarda yokida festivallarda qatnashish va tashkillashtirish orqali turizmni yanada keng ildiz otib, takomillashtirishga zamin yaratadi, chunki gastronomik turizmning asl mohiyati nafaqat taomlarni tatib ko`rish balki ularni tayyorlanish texnologiyalarini o`rganish, mahorat darslarida qatnashish, turli xil studiya va maktablarda tahsil olishdir. Gastronomik festivallar- turistik tadbirlarning bir ko`rinishi bo`lib, gastronomik

turizmga qiziqishi bo`lgan turistlarni jalb qilish orqali, soha ravnaqiga hissa qo`shish va milliy taomlarni tanitish hamda ularni tortiq qilish yo`li. Gastronomik festivallarni keng ko`lamda tashkillashtirilishi va o`tkazilishi, turizm sohasi ravnaqiga salmoqli hissa qo`shadi va nafaqat xalqaro turizmni balki ichki turizmni rivojlanishiga ta'sir qilib, ommaviy sayohatlarni keng tarqalish omili sifatida xizmat qiladi.

XULOSA: O'zbekistonda turizmni rivojlantirish, turistlarga xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish va ular uchun barcha sharoitlarni yaratish maqsadida yangi turistik majmualar, mehmonxonalar, restoranlar, barlar qurilishi uchun kata mablag' ajratilmoqda. Bunday suratda turizmni rivojlantirish albatta umumiy ovqatlanishni ham rivojlantirishni taqazo etadi. Chunki barcha turistlar goh ichki goh tashqi turist bo'lsin bundan qat'i nazar restoran xo'jaligiga yoki ovqatlanish tarmog'idan foydalanishga majbur. Aks holda inson ovqatlanish uchun barcha mahsulotlarni o'zlari bilan olib yurishi kerak yoki uy sharoitlarida tayyorlab iste'mol qilishlari kerak bo'ladi. Ammo turistlarda bunday imkoniyatlar yo'q, shuning uchun ham ular ovqatlanish xizmatidan foydalanishga majburdir va mana shu holatlarning mavjud bo'lishi turizm umumiy ovqatlanishni uyg'un holda rivojlantirishi uchun imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кутлимуротов Ф.С. Внедрение Корейского гостиничного менеджмента в Узбекистане. Материалы VII-Международной научно-практической конференции студентов и аспирантов. г. Донецк 2004 (Kutlimurotov F.S. Introduction of Korean hotel management in Uzbekistan. Materials of the VII-International Scientific and Practical Conference of Students and Postgraduates).
2. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатнома. <http://www.gov.uzo> (Мирзиёев Ш.М. Обращение к Олий Мажлису).
3. Ткачук П.Ю. Новая русская кухня как фактор развития национального наследия / П.Ю. Ткачук // Вестник Луганского национального университета имени Тараса Шевченко: сб. науч. тр. / гл. ред. Е.Н. Трегубенко; вып. ред. Н.В.Вострякова; ред. сер. А.Е. Пожидаев. – Луганск: Книга, 2018. – № 1(10): Серия 5. География. Экономика. Туризм. – 148с.
4. Куклина Т.С. Гастрономический туризм на туристическом рынке. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.sworld.com.ua/konfer30/682.pdf>. Сборник научных трудов SWORLD. Материалы международной научно-практической конференции «Современные направления теоретических и прикладных исследований 2013» 19-30 марта 2013 г.
5. Нехаева Н.Е., Терехова Ю.С. Гастрономический туризм как перспективное направление развития регионов России // Естественные и математические науки в современном мире: сб. ст. по матер. XXXIV междунар. науч.-практ. конф. № 9(33). – Новосибирск: СибАК, 2015.

6. Саламатина С.Е. Состояние и перспективы развития гастрономического туризма на юге Одесской области. Одесская национальная академия пищевых технологий. Научные труды, выпуск 46, том 2. - С. 325-329
7. Hall СМ, Mitchell R. Gastronomic tourism //Niche Tourism. – 2013. – Р. 73. (Холл С.М., Митчелл Р. Гастрономический туризм //Нишевый туризм.)
8. <https://www.eda27.ru/gastronomicheskiy-turizm>
9. <https://dokumen.pub/the-routledge-handbook-of-gastronomic-tourism-1nbsped-1138551554-9781138551558.html>
10. John D Mulcahy “Historical Evolution of Gastronomic Tourism” 2019 у (Историческая эволюция гастрономического туризма»)
11. https://www.immaterieelerfgoed.nl/media/inline/2017/9/14/tourism_and_intangible_cultural_heritage_unwto.pdf